

MUSIQA TA'LIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Xurshida Shuxrat qizi

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa ta'limi jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasi yoritilgan. Raqamli vositalar, multimediyali dasturlar, onlayn platformalar va virtual ta'lim imkoniyatlarining samaradorligi tahlil qilingan. Musiqa darslarida texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish va xalqaro tajribadan foydalanishga yordam berishi ilmiy asosda izohlangan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi bilan bog'liq amaliy misollar keltirilib, O'zbekiston musiqa ta'limida ularni joriy etishning afzalliklari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa ta'limi, zamonaviy texnologiyalar, multimediyali vositalar, interaktiv metodlar, raqamli ta'lim, xorijiy tajriba, ijodiy qobiliyat, masofaviy ta'lim.

Аннотация: В данной статье рассмотрено использование современных технологий в процессе музыкального образования. Анализируется эффективность цифровых средств, мультимедийных программ, онлайн-платформ и виртуального обучения. Показано, что применение технологий способствует повышению музыкальной грамотности учащихся, развитию их творческих способностей, формированию навыков самостоятельного обучения и приобщению к международному опыту. Приводятся примеры из зарубежной практики и раскрываются преимущества внедрения подобных подходов в систему музыкального образования Узбекистана.

Ключевые слова: Музыкальное образование, современные технологии, мультимедийные средства, интерактивные методы, цифровое обучение, зарубежный опыт, творческие способности, дистанционное образование

Abstract: This article explores the use of modern technologies in the process of music education. The effectiveness of digital tools, multimedia programs, online platforms, and virtual learning is analyzed. It is demonstrated that the integration of technology enhances students' musical literacy, develops their creative abilities, fosters independent learning skills, and provides access to international experience. Examples from foreign practice are presented, highlighting the advantages of implementing such approaches in the music education system of Uzbekistan.

Keywords: Music education, modern technologies, multimedia tools, interactive methods, digital learning, foreign experience, creative abilities, distance education.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, musiqa ta'limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish, ijodiy

qobiliyatlarini rivojlantirish hamda darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda xorijiy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy o'qitish jarayonini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

1. O'qituvchilarni tayyorlash – xorijiy tajribalarni o'rganish, seminar, trening va malaka oshirish kurslari orqali zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish.
2. Innovatsion metodlar – interaktiv o'qitish, muammoli ta'lim, loyiha asosida ishlash kabi ilg'or usullarni keng tatbiq etish.
3. Texnologik infratuzilma – maktab va oliygohlarni kompyuter, internet va multimedia vositalari bilan ta'minlash.
4. Ilmiy tadqiqotlar – xorijiy tajribani o'rganib, mahalliy sharoitga moslashtirish.
5. Xalqaro hamkorlik – xorijiy oliygohlar va ta'lim muassasalari bilan tajriba almashish, stajirovka va almashuv dasturlarini rivojlantirish.
6. O'quv dasturlarini yangilash – xalqaro tajribaga tayangan holda ta'lim mazmunini takomillashtirish.
7. O'zaro baholash tizimi – o'qituvchi va talaba o'rtasida fikr almashish, baholash jarayonini ochiq va samarali tashkil etish.

Asosiy qism

Bugungi ta'lim jarayonida an'anaviy uslublardan interaktiv metodlarga o'tish tobora kuchaymoqda. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar nafaqat tayyor bilimlarni berishga, balki talabaning mustaqil izlanishi, tahlil qilishi va xulosa chiqarishga imkon yaratadi.

Pedagogik texnologiya — bu ta'lim-tarbiyada belgilangan maqsadlarga erishishning tizimli metodidir. Unda texnik vositalar, kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bir qatorda, pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati ham muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy yondashuvning afzalliklari shundaki, o'quvchi-talaba dars jarayonida befarq bo'lmaydi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashishga majbur bo'ladi. Natijada bilimga bo'lgan qiziqishi doimiy ravishda kuchayadi. O'qituvchi esa darsni loyihalashda fan mazmuni, texnik vositalar, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hisobga olgan holda texnologik xarita tuzadi.

Darsning texnologik xaritasi — bu o'qituvchi uchun puxta reja bo'lib, unda mavzu, maqsad, vazifalar va kutilayotgan natija aniq belgilanadi. Bunday yondashuv darsni qiziqarli va samarali o'tishga, o'quvchining faol ishtirokini ta'minlashga yordam beradi. Xorijiy tajribaga asoslangan pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish O'zbekistonda musiqa ta'limini yangi bosqichga ko'taradi, talabalarning mustaqil o'qishi va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, o'qituvchilar faoliyatini esa samaraliroq qiladi kollej va texnikumlarida kasbiy musiqa tayyorgarligi olib boriladi. "GarageBand", "MuseScore", "Sibelius" kabi dasturlar o'quvchilarni o'z ijodiy kompozitsiyalarini yaratishga yo'naltiradi. Bundan tashqari, virtual pianino va simfonik orkestr dasturlari yordamida bolalar asbob chalishni o'rganishlari, musiqiy eshituv va ritmik qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. So'nggi yillarda masofaviy ta'lim musiqa o'qitish jarayoniga ham keng tatbiq qilina

boshlandi. Onlayn darslar orqali xorijiy o'qituvchilar bilan muloqot qilish, xalqaro mahorat darslarida qatnashish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa o'quvchilarda xalqaro musiqiy tajribadan xabardor bo'lish, dunyo miqyosida ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi.

AQSh maktablari va universitetlarida musiqa ta'limida multimedia, virtual dasturlar va onlayn platformalar keng qo'llanadi. Masalan, "SmartMusic" dasturi yordamida o'quvchilar individual mashg'ulotlarni mustaqil olib borishlari va o'z ijrosini audio yozuv bilan solishtirishlari mumkin.

Bu jarayon tezkor tahlil va o'zini-o'zi baholash imkoniyatini beradi. Stressni kamaytirib, o'quvchilarning emotsional barqarorligini ta'minlaydi.

Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniyada musiqa darslarida interaktiv doskalar, elektron notalar va kompyuter dasturlari qo'llaniladi. Ularning afzalligi shundaki:

- asarlarni ko'rgazmali tarzda tahlil qilish imkonini beradi,
- xor va orkestr partiyalarini turli ovozlarda tinglash imkoniyatini yaratadi,
- o'quvchilarni guruhij ijroga tayyorlaydi.

Yaponiyada Suzuki metodikasi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan. Bolalar musiqani dastlab audio va video vositalar orqali tinglab, so'ngra ijro etishga o'rgatiladi.

Shuningdek, mobil ilovalar yordamida o'quvchilar uy sharoitida mashq qilishni davom ettirishlari mumkin. Bu esa musiqa ta'limining uzluksizligini va qulayligini ta'minlaydi.

Rossiyada musiqa ta'limida "Moodle" kabi elektron platformalar, shuningdek, musiqa kutubxonalari va raqamli audio-arxivlardan foydalaniladi.

Bu o'quvchilarga dunyo musiqiy merosidan bahramand bo'lish imkoniyatini beradi va milliy hamda jahon musiqa san'atini solishtirib o'rganish imkonini kengaytiradi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga tayanib, musiqa ta'limida texnologiyalardan foydalanish quyidagi afzalliklarni beradi:

1. Interaktivlik – o'quvchi dars jarayonida faol ishtirokchi bo'ladi.
2. Ijodkorlikni rivojlantirish – o'z kompozitsiyasini yaratish va ijodiy loyihalar bilan shug'ullanish imkoniyati paydo bo'ladi.
3. Shaxsiylashtirilgan ta'lim – har bir o'quvchi o'z qobiliyatiga mos mashg'ulotni tanlay oladi.
4. Xalqaro tajriba almashinuvi – onlayn mahorat darslari va musiqiy loyihalarda qatnashish orqali o'quvchilar dunyo miqyosida musiqiy muloqotga kirishadilar.
5. Uzluksizlik – darsdan tashqari uy sharoitida ham mashg'ulotni davom ettirish mumkin.

Xulosa

Shunday qilib, musiqa ta'limida texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning musiqiy tafakkurini kengaytirish va ularni zamonaviy raqamli muhitga moslashtirishda katta ahamiyatga ega.

Ushbu tajribalarni O'zbekiston musiqa ta'limiga moslashtirish milliy ta'lim tizimida ham sezilarli natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев, А. (2020). Муסיқа таълимида замонавий педагогик технологиялар. Тошкент: Фан ва технология.
2. Зиятдинова, Г. (2019). Мировой опыт применения информационных технологий в музыкальном образовании. Москва: Академия.
3. Z. (2015). The Selected Writings of Zoltán Kodály. London: Boosey & Hawkes.
4. Suzuki, S. (2013). Nurtured by Love: The Classic Approach to Talent Education. Alfred Music Publishing.
5. Назаров, Х. (2022). Umumta'lim maktablarida musiqa darslarida innovatsion texnologiyalar. Toshkent: O'qituvchi.